

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

10
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 714 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrazoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., TDU rektori
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dotsent
Djumaniyazov Maqsud Allazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farhod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoirazimovna SamDu IS instituti professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Nomozova Qumri isoyevna Geologiya fanlari universiteti "Iqtisodiy geologiya" kafedrasini dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi PKQTUMOTMXHB mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Qishloq xo'jaligida innovatsion xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich , professor, Zaynutdinova Umida Djalalovna , dotsent	
O'zbekiston-Turkiya do'stligi azaliy qadryatlarimiz zaminida yashab kelmoqda.....	13
O'sman Mesten , Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya-O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari	
O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishini davlat tomonidan	
qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish.....	15
Akkulov Abdulaziz Uralboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekiston Respublikasini "Yashil" iqtisodiyotga o'tish istiqbollari. Muammolar va yechimlar.....	19
Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li , doktorant	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "Yashil" iqtisodiyotning o'rni.....	26
Sevara Yaxshimuratova Rustam qizi , assistent-o'qituvchi	
Sanoat barqarorligini ta'minlashda yashil energetikaning o'ziga xos xususiyatlari.....	29
Kadirov Abdumalik Matkarimovich	
Republikamizda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishda agroxizmatlarni	
rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	36
Mirzayev Q. J. , i.f.d., professor; Jonuzokov M. K. , assistent o'qituvchi	
"Yashil" obligatsiyalarni muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlari.....	40
E. I. Nosirov , i.f.n., dotsent	
Turizm sohasidagi loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	46
Matkabulova Dilorom Xalilullayevna , PhD	
Koreya Respublikasida yashil (eko) turizmning rivojlanish yo'nalishlari va muammolari.....	51
Islomova Dilrabo Salomovna , kafedra assistenti	
Moliyaviy menejment tizimini transformatsiyalashda raqamli marketing	
samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari.....	55
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich , PhD, dotsent	
Samarqand viloyati ekologik turizm salohiyatidan samarali	
foydalanish asosida ekoturizm klasterlarini shakllantirish.....	62
Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi , i.f.b.f.d.; Axrorov Farxod Baxriddinovich , i. f. n.; Xo'jamov Bobur , tadqiqotchi	
Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o'rni.....	68
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanishiga global trendlarning ta'siri.....	72
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich , i.f.d., professor	
Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending	
to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan.....	79
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna , PhD, docent; Maqsudov Orif Shakirovich , assistant	
Islomiy moliya instrumentlari (muzoraba va mushoraka) va ularni tijorat banklarida qo'llash.....	84
Madraximova Gulasal , dotsent; Safarova Nasiba , magistrant	
Mamlakatimizda "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari.....	90
Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich , Todjimamatova Mashhura Erkinovna ;	
Nurmatova Hilola A'zamovna ; Berdieva Aziza G'anisher qizi ; Egamberdieva Oydin Abror qizi	
Ways to Improve the Green Recovery in Uzbekistan by Investment and Trade.....	97
Nurbek Khalimjonov , assistant	
Evaluating the Path Towards Sustainable Tourism Development in the Republic of Uzbekistan.....	102
Khusniddin Egamnazarov	
Nexus Between Climate Change and Energy Consumption in Uzbekistan: A Time Series Analysis.....	106
Sarvar Mamasoliyev ; Shodiyor Toxirov	
O'zbekistonda mice turizmini barqaror rivojlanishida qulay infratuzilma.....	112
Xalimova F. N. , katta o'qituvchi	
Ichki turizmni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribasi va uni	
O'zbekistonda qo'llashning iqtisodiy afzalliklari.....	115
Matkarimov Jahongir Shamuratovich , mustaqil tadqiqotchi	
Agroturizmni rivojlantirish orqali hududlarning barqaror rivojlantirish imkoniyatlari.....	122
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , kafedra dotsenti	
Turizm sektorida milliy hunarmadchilik mahsulotlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	126
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna , kafedra assistenti	
Роль религиозного туризма в экономике Узбекистана.....	132
Рахимова Дилфуза Мирзакасимовна , преподаватель	
Turistik sanoatining investitsion jozibadorligini boshqarish va samaradorligini baholash.....	139
Sa'dullayeva Gulnoza Sodiq qizi , PhD	



Turizmga innovatsiyon texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	144
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , doktorant	
O'zbekistonning "yashil iqtisodiy strategiyasi" va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari	147
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich , dotsent	
An Analysis of the Structure of Trade Between China and Uzbekistan	150
Cao Gang , PhD Candidate	
"Daka-Tex" MCHJ XKning marketing faolyatining takomillashtirish.....	160
Musyeva Shoirazimovna , kafedra professori	
Mamalakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat xavfsizligining o'rni.....	164
Ibragimov G'ayrat Ablalulovich , PhD; Shukurova Nilufar Qahramonova , tadqiqotchi;	
Umirov Islombek Furkatovich , tadqiqotchi; Tojiqulov Samandar Orufjon o'g'li , tadqiqotchi	
MDH davlatlarida chorva va parandachilik o'sish dinamikasi	169
Abidov Abdujabbor Abduxamidovich , t. f.n., dotsent	
Tijorat banklarida foiz stavkaning likvidlikka ta'siri	179
Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich , iqtisodiyot fanlari doktori, professor	
O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvining dolzarb masalalari	186
Burxanov Aktram Usmanovich , i.f.d., prof.; Xudoyqulov Xurshid Xurramovich , i.f.d., prof.	
O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishiga oid	191
Ruzibayev Jahongir Nodirovich	
O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori hozirgi holati tahlili.....	194
Ro'ziqulov Abdimo'min Qussam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Raqamli texnologiyalar orkali turizm industriyasini rivojlantirish usullari	200
R. P. Zarikeyev , mustaqil doktorant	
Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda inson resurslaridan foydalanish amaliyoti	206
Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich , doktorant	
Oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shakli mablag'lari bo'yicha xarajatlar	
va ular hisobining amaldagi holati	211
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna , doktorant	
O'zbekistonda oziq-ovqat bozori nazariy tahlili.....	216
Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi , doktorant	
Sug'urta munosabatlarini takomillashtirishning istiqbollari	221
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , doktorant	
Functions of Management in Education and Its Significance	231
Akhatova Shakhnoza Akram kizi , teacher	
Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishni yangicha	
usullarini o'rganishning ayrim dolzarb masalalari	235
Ametov Quvondik Mamatjanovich , mustaqil izlanuvchi	
Yog'-moy sanoati korxonalari kapitali rentabelligini oshirish yo'nalishlari.....	238
Amirzoda Hamrayev , katta o'qituvchi	
Banklararo to'lov tizimini raqamli iqtisodiyotdagi rolini oshirish choralari	244
Amonov Alisher , o'qituvchi	
Baholash faoliyatini raqamlashtirish istiqbollari.....	248
Bobirjon Aktamov , katta o'qituvchi	
Marketing xizmati samaradorligini baholashda PEST tahlil usulining ahamiyati va qo'llash imkoniyatlari	253
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li , katta o'qituvchi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining vujudga kelish zarurati, umumiy hisobotlarining tuzilishi	
va O'zbekistonning MHXSga o'tishida vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishning istiqbolli	
yo'nalishlari	259
Djurayeva Iroda Bahrom qizi , doktorant, o'qituvchi	
Samaradorlikni korxona iqtisodiyotida tutgan o'rni	265
Fayziyeva Nilufar Shuxrat qizi , PhD, katta o'qituvchi	
Avtomobil transporti korxonalarida amortizatsiya xarajatlari va uning hisobini takomillashtirish masalalari...	269
G'anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich , doktorant	
Turistlar statistik hisobini olib borish bo'yicha xalqaro standartlar va tajribalar tahlili	275
Jumanova Zilola To'ychiyevna , doktorant	
Tijorat banklari ipotekali kreditlarining qaytuvchanlik holatini barqarorlashtirish choralari	280
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li , kafedra o'qituvchisi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni	
amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	284
M. Samiyeva , kafedra assisenti	
Assessment of the Economic Effectiveness of the Railway Transport System	288
Mannonov Shahruhmirza Abdurashidovich , independent researcher	
O'zbekistonda mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari.....	294
Nazarova Muslima Nazarovna , PhD, i.f.f.d., katta o'qituvchi	



Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	301
Odilov Dilshodjon Tulqinovich	
O'zbekistonda paxtachilik majmuasining iqtisodiy samaradorligini oshirish	307
Xoliqov Tolibjon Luptullaevich , kafedra assistenti	
Ta'lim tizimi boshqaruvida "time menejmenti" texnologiyalarini qo'llash.....	311
Radjabova Gavxar Umarovna , kafedra dotsenti	
Improving Trade Effectiveness Through Merchandising: Theory and Practice	316
Ravshan Aliyevich Allayorov , Associate Professor	
An'anaviy moliya tizimidagi yangi yondashuv va yechimlar	319
Abrorov Sirojiddin , PhD; Bunyod Usmonov , PhD	
Ijtimoiy fondlar va maqsadli jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish.....	325
Samiyeva Gulnoza Toxirovna , PhD, i.f.f.d.	
Tikuv-trikotaj korxonalarining brend jozibadorligini marketing strategiyalari asosida oshirish.....	332
Sh. Sh. Ziyayeva , katta o'qituvchi	
Surxondaryo mintaqasining ekoturizm salohiyati nuqtayi nazaridan baholash	337
Soatov Yusuf Xo'jayor o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Совершенствование учета неиспользованных основных средств в Республике Узбекистан.....	340
Усманов Фаррух Обитжонович , научный сотрудник кафедры	
An'anaviy moliya tizimining metodologik muammolari, shuningdek moliya tizimida yuz beruvchi inqirozlar va ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari	348
Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich , stajor tadqiqotchi	
Dehqon xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda tomorqa xizmati klasterlarini takomillashtirish	355
Xamrayeva Sayyora Nasimovna , kafedra professori; Ochilova Nargiza Akramovna , doktorant	
Transport xizmatlari bozorida marketing faoliyatini mexanizmlarini rivojlanishining asosiy tamoyillari	360
Nosirov Javlonbek Jamoliddin o'g'li , doktorant; Raxmatov Ziyodullo Nosirovich , dotsent	
BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag'allikni qisqartirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari.....	363
Yusupov M. S. , PhD	
Мировые финансовые центры точки роста экономики	369
Абдуллаев Анвар Фархадович , PhD., доцент кафедры	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy ijtimoiy qarashlaridagi umumiylik va xususiylik	375
Abrorxon Asatulloev Asatulloevich , PhD	
Математическое обоснование вычисления моды и медианы в статистике.....	379
Бердикулова Ирода Райимкуловна , старший преподаватель; Усманов Шахзод Шохрухович , студент	
Yirik soliq to'lovchi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda soliq ma'murchiligining istiqbollari.....	390
G'aniyev Shaxriddin Vohidovich , i. f. d., Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , PhD	
Sog'lomlashtirish turizmi klasterlari faoliyatida innovatsion faoliyatni boshqarishning kross-innovatsiyalar asosidagi modeli	395
G'ofurov Azizbek Umarjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish yullari.....	400
J. Y. Isakov , i.f.d, professor	
Mehnat bozorining raqamlashgan iqtisodiyotdagi statistik masalalari.....	405
A. Abduvohidov , i. f. d., professor	
Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritish.....	407
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich , PhD	
Актуальная ситуация в сегменте теневой экономики в Республике Узбекистан	412
Кошанов Абдимурат , независимый исследователь	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	416
Qurbonova Shaxrinoz , doktorant	
Erkin iktisodiy hududlarda investitsion faollikni oshirish masalalari.....	420
Qilicheva Kamola Muzaffarovna , mustaqil tadqiqotchi	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	425
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich , erkin izlanuvchi	
Sug'urtada assistans xizmatlarini takomillashtirish	433
Maxmudov A. M.	
Цифровизация бухгалтерского учета.....	439
Мирсодикова Дилобар Дилшод кизи , самостоятельный соискатель	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish.....	445
Nasrova Kamola Ravshanovna , PhD	
Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках.....	451
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент; Нуриллаев Шердил Жамолiddin угли , магистр	



Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari.....	456
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish	460
Berdiyeva Dilfuza Axatovna , PhD, dotsent	
Экономика знаний как высший ступень развития инновационной экономики	466
Хасанхонова Нодира Исаметдиновна , PhD	
Kichik biznes subyektlarini samarali investitsiyalashning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi.....	471
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna , iqtisod fanlari nomzodi	
Davlat-xususiy loyihalarining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy asoslari	481
Suleymanov Farrux Raximjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Комплексный анализ хозяйственно-экономической деятельности и устойчивости АО "Узавтосаноат"	487
Туйчиев Комилжон Лазизович , доцент кафедры	
Экономическая сущность и важность повышения эффективности	
производства каракулеводческой продукции.....	493
Тулкин Хайтмуродович Фармонов , профессор; Нуриллаев Жамолiddин Ярашевич , докторант	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	499
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , PhD, kafedra dotsenti	
Инновационные методы энергосбережения как способ повышения	
конкурентоспособности предприятия	503
Хамдамова Гавхар Абсаматовна , к.э.н., профессор	
Hudud sug'oriladigan yerlarida suv resurslaridan foydalanish holati tahlili	508
Shoxujayeva Zebo Safoyevna , i. f.n., professor, katta ilmiy xodim	
Hududlarning moliyaviy-investitsion salohiyatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini	513
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi , kafedra dotsenti i.f.d.	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xodimlar faoliyatining axborot tizimlarini samarali tashkil qilish.....	521
Yuldashev Furqat Nurilloevich , doktorant	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyoti sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo'llari	524
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich , PhD; Akramov G'ayrat Otabek o'g'li , talaba	
An Analysis of Green Taxation and Its Effect on Economic Growth	530
Fayzieva Nargiza Rabimovna , PhD	
Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini	537
Qurbonov Jasurbek Pozilovich , kafedra dotsenti	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli	540
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich , PhD, kafedra dotsenti	
O'zbekistonda energetika korxonalari faoliyatida korporativ	
boshqaruvining baholash usullarini tahlili.....	544
Abduraxmonova Zarina Muysinjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'rta Osiyo davlatlarida rekreatsiya turizmi.....	548
Shaymanova Nigora Yusupovna , doktorant	
Korxona investitsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar va qarashlar evolyutsiyasi.....	552
Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li , doktorant	
O'zbekiston sanoatining rivojlanish tendensiyalari, muammo va yechimlari.....	559
Shavqiyev Erkin , i. f. n.	
"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati, dastaklari va uning o'ziga xos tamoyillari	565
Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich , kafedra dotsenti	
Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari	571
Ashurov Maxammadjon Sotvoldiyevich , i.f.n., kafedra dotsenti	
Ijtimoiy tarmoqlar analitikasi.....	576
S. Qulmatova , PhD, dotsent	
Analysing the Functioning of Enterprise Management in the Context of Institutional Reforms	581
Kurpayanidi Konstantin Ivanovich , Professor	
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini baholash	586
Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchi	
Soliq tushumlarini prognozlashtirish modellarini qurishning klassik va intellektual usullari	593
Narmanov Ulug'bek Abdugapparovich , PhD; Maqsudov Azamat Maqsud o'g'li	
Kompaniyani samarali boshqarishda marketingning o'rni va uning tamoyillarini qo'llash istiqbollari.....	598
Usmonova Dilfuza Ilhkomovna , kafedra dotsenti	
Экономическая безопасность и факторы влияющие на неё.....	602
Абдишукуров Шерзод Шавкат угли , научный сотрудник	
Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalari bo'yicha xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish.....	608
Artikov Kurbonazar Amonovich , mustaqil ilmiy tadqiqotchi	
Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati.....	614
Asamxodjaeva Shoirra Shukurullaevna , katta o'qituvchi	



Перспективы развития инноваций и роль стартапов: зарубежный опыт, проблемы и решения.....	618
Ачилова Ширин Шавкат кизи , старший преподаватель	
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashda garov ta'minotini takomillashtirish	622
Bazarova Nigora Ravshanovna , kafedra dotsenti	
Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini boshqarish masalalari	627
Kenjayev Ilhom G'iyozovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Organizational Factors Influencing Leadership Styles and Procurement Outcomes	632
Saidakhmedov Islomjon Uligbekovich , Scientific researcher	
Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari	637
Mirpulatova Luiza Mansurovna , doktorant	
Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasining ekonometrik tahlillari.....	642
Norov Akmal Ruzimamatovich , DSc, kafedra professori	
Tijorat banklarida kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llari	649
Norova Nozima Nabiyevna , katta o'qituvchi	
Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari	657
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
Jahondagi kuzatilayotgan globallashuv va tabiatdagi o'zgarishlar oqibatida kelib chiqayotgan turli xatarlardan himoya qilishda sug'urta tashkilotlari oldida turgan vazifalar ("O'zbekinvest" EISK AJ misolida).....	661
Sayfullo Mirzoyev	
International Experiences on Restoration of Financial Stability Through Indicators in Commercial Banking Sector	666
Solijonova Muxlisa Azamatovna	
Pensiya yoshining pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri.....	668
Tursunov Jaxongir Pulatovich , DSc	
Mamlakat iqtisodiyotini islom moliya instrumentlari orqali rivojlantirish istiqbollari.....	673
Xalikov Ulug'bek Rustamovich , PhD	
Sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayonini zarurligi va ahamiyati.....	678
Xudoyberdiyeva Sadoqat Abdumannonova , mustaqil izlanuvchisi	
Qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning innovatsion menejment tamoyillari... 683	
Shaniyazova Zamira Oralbayevna , PhD	
Тенденции развития жилищного строительства.....	688
Алиева Зилола Маматвалиевна , доцент кафедры	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion usullari.....	692
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'larining shakllanishi va nazorat qilinishi.....	698
Xusanov Nishonboy Abdusattarovich , filologiya fanlari doktori, professor	
Спиртные напитки - вред здоровью	702
Кариева Халима Икромжоновна , старший преподаватель кафедры	
Importance of Social Infrastructure Development in Rural Areas	706
Munisa Alimova	
Davlat xizmatida agile loyiha boshqaruvi texnologiyasidan foydalanish	709
Isaqova Zebo Murodovna , f.f.n. (PhD), tadqiqotchi	



PENSIYA YOSHINING PENSIYA TA'MINOTI TIZIMIGA TA'SIRI

Tursunov Jaxongir Pulatovich

DSc, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Sug'urta va risklarni boshqarish" kafedrasini mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada pensiya ta'minoti tizimida pensiya yoshining o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bo'lib, avvalo mavzuning dolzarbligi asoslangan, ushbu soha bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganilgan. MDH, Gruziya va Boltiqbo'yi mamlakatlarida yoshga doir pensiya tayinlash uchun belgilangan pensiya yoshi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mazkur davlatlarda o'rtacha ish haqi miqdorlari tahlil qilingan. Pensiya yoshini oshirishga qaratilgan pensiya islohotlari keltirilgan hamda pensiya yoshini qanday qilib oshirish mumkinligi borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pensiya ta'minoti, pensiya yoshi, pensiya tizimi, ish haqi, pensiya sug'urtasi, kambag'allik, davlat pensiyalari, o'rtacha umr ko'rish yoshi, pensiya islohotlari.

INFLUENCE OF PENSION AGE ON THE PENSION SYSTEM

Tursunov Jakhongir Pulatovich

DSc. The Banking and finance academy Republic of Uzbekistan

Abstract: This article aims to reveal the role and significance of the retirement age in the pension system, first of all, the relevance of the topic is substantiated, and the scientific works of foreign and domestic scientists in this field are studied. In the CIS, Georgia and the Baltic countries, the retirement age established for the appointment of an old-age pension is taken into account. The average salary in these countries was also analyzed. Pension reforms aimed at raising the retirement age are presented, proposals and recommendations for raising the retirement age are developed.

Key words: pension provision, retirement age, pension system, wages, pension insurance, poverty, state pensions, life expectancy, pension reform.

ВЛИЯНИЕ ПЕНСИОННОГО ВОЗРАСТА НА ПЕНСИОННУЮ СИСТЕМУ

Турсунов Джахонгир Пулатович

Доктор наук. Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация: Целью данной статьи является раскрытие роли и значения пенсионного возраста в пенсионной системе, в первую очередь обосновывается актуальность темы, а также изучаются научные труды зарубежных и отечественных ученых в этой области. В СНГ, Грузии и странах Балтии учитывается пенсионный возраст, установленный для назначения пенсии по старости. Также была проанализирована средняя зарплата в этих странах. Представлены пенсионные реформы, направленные на повышение пенсионного возраста, разработаны предложения и рекомендации по повышению пенсионного возраста.

Ключевые слова: пенсионное обеспечение, пенсионный возраст, пенсионная система, заработная плата, пенсионное страхование, бедность, государственные пенсии, продолжительность жизни, пенсионная реформа.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda o'rtacha umr ko'rish yoshining keskin o'zgarishi, shuningdek pensiya tizimidagi islohotlar negizida pensiya yoshini oshirish muhim masalalardan hisoblanadi. Pensiya ta'minotining muhimligi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida (PF-60, 2022) ham maqsad sifatida belgilab quyilgan.

Pensiya ta'minoti tizimida pensiya yoshi asosiy ko'rsatkich bo'lib, pensiya yoshi – nafaqat insonlarni tashvishga soladigan masala, balki har bir mamlakatning iqtisodiyot va siyosatidagi muhim omil hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari pensiya tizimlarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi erta pensiyaga chiqish



(imtiyozlar)ni kamaytirish, kech pensiyaga chiqishni rag'batlantirish va eng muhimi pensiya yoshini oshirishga qaratilgan. O'zbekistonda ham pensiya islohotlari boshlangan bo'lib, asosiy masala pensiya miqdorlarini idek-satsiyalash, jumladan minimal pensiya miqdorlarini minimal iste'mol xarajatlariga tenglashtirish, pensiya hisoblash uchun hisobga olinadigan o'rtacha oylik ish haqi miqdorini oshirish orqali pensiya hisoblash mehanizmini takomillashtirish, ko'p darajali pensiya tizimiga o'tish hamda pensiya sohasini raqamlashtirishga qaratilmoqda. Dunyoda o'rtacha umr ko'rish yoshining o'sib borayotganligi, o'rtacha pensiya yoshining yuqoriligiga qaramasdan pensiya yoshini oshirish masalasi islohotlarda zarur chora sifatida ko'rilmayapti.

Pensiyalarni hisoblashda mehnat stajiga e'tibor qaratish va pensiya yoshini belgilash bo'yicha mamlakatga xos va mos bo'lgan xorij tajribalarini o'rganish va amalda qo'llash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ko'plab davlatlarda pensiya to'lashda pensiya yoshiga e'tibor qaratgan bo'lsa, boshqa davlatlarda mehnat stajiga jiddiy e'tibor berishadi. Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlar fuqarolari necha yoshdan pensiyaga chiqadi va qanday to'lovlarni olishlari to'g'risida turli mamlakatlarning pensiya yoshi hamda pensiya to'lovlari haqida ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR SHARHI (LITERATURE REVIEW)

Mehnat staji va pensiya yoshi pensiya ta'minotining muhim elementlaridan hisoblanadi. Bu esa pensiya ta'minoti bo'yicha tadqiqot olib borgan ko'plab xalqaro moliyaviy tashkilotlar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan rossiyalik olim V.Roikning (2020) ilmiy ishlarida aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya ta'minotining o'rni, pensiya sug'urtasi, ijtimoiy sug'urta va uning moliyaviy-iqtisodiy asoslari, pensiya yoshini oshirish bilan bog'liq masalalar, pensiyalarni hisoblashda sug'urta stajining ahamiyati bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan. Aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy, tibbiy va pensiya sug'urtasining hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

G. Tetlou (2015) o'zining pensiya ta'minoti bo'yicha tadqiqodida bugungi kunda pensiya tizimida islohotlar nechog'lik zarur ekanligini, bunda pensiyaga to'lanadigan o'tkazmalarni miqdorlarini oshirish, ko'proq nodavlat pensiya fondlari faoliyatiga e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlagan.

A. P. Shemetov va S. N. Orlovlarning (2013) ilmiy xulosalariga ko'ra, demografik va boshqa omillar ta'sirini hisobga olgan holda milliy pensiya ta'minotining yangi tizimini yaratish va uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash zarurligi ilgari surilgan. Olimlarning fikricha, xorij tajribalariga tayanib, pensiya ta'minoti tizimining alohida elementlarini takomillashtirish kerak. Lekin, ilmiy tadqiqot ishlarida pensiya yoshi va mehnat staji bilan bog'liq munosabatlar to'liq yoritilmagan.

Sh. Rajabovning (2021) pensiya tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan dissertatsiya ishida O'zbekistonda nodavlat pensiya fondlarini tashkil qilish bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek pensiya tayinlash, to'lash amaliyoti va pensiya yoshi ko'rib chiqilgan, Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda yoshga doir pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida tadqiqot ishida M. Ziyadullaev (2019) ko'proq yoshga doir pensiyani hisoblash, tayinlash va to'lash mehanizmlarini huquqiy taraflama ko'rib chiqqan. Yoshga doir pensiya olish huquqini beradigan eng kam mehnat staji chuqur tahlil qilinmagan, xorij tajribasi to'liq o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Maqola mavzusi pensiya ta'minoti tizimida pensiya yoshining o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bo'lib, avvalo mavzu dolzarbligi asoslandi, ushbu soha bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Ilmiy tadqiqot davomida analitik tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Pensiya yoshi – pensiya ta'minoti tizimida yagona muhim omil emas. Pensiya oluvchilarning hayot sifati ko'rsatkichi sifatida ularning olayotgan pensiya miqdorlari qiymati hisoblanadi. Bu borada Lyuksemburg yetakchi hisoblanib, u yerda o'rtacha pensiya miqdori 3500 yevroni tashkil qiladi. Shuningdek Daniyada o'rtacha pensiya miqdori – 2500 yevro, Norvegiyada – 1500-2000 yevro, Finlyandiya – 1800 yevro.

Pensiya miqdorlari bo'yicha MDH, Gruziya va Boltiqbo'yi davlatlarini bu borada maqtab bo'lmaydi. Albatta, har bir davlatdagi narx-navoni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra MDH mamlakatlari ichida eng yuqori o'rtacha pensiya va o'rtacha oylik ish haqi to'lovlari Rossiya davlatiga to'g'ri kelmoqda. Boltiqbo'yi davlatlarida ham o'rtacha oylik va pensiya miqdorlari yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'istonda o'rtacha pensiya va ish haqi miqdorlari mos ravishda 232,7 va 666,1 AQSh dollarini tashkil qilmoqda. O'zbekistonda ham 2022-yil yakuni bo'yicha o'rtacha pensiya miqdori 1 070,4 ming so'm yoki 95,7 AQSh dollarini tashkil qilgan.



1-jadval: MDH, Gruzija va Boltiqbo'yi davlatlarida o'rtacha pensiya va ish haqi miqdorlari to'g'risida ma'lumot, 2022-yil (apsf.ru)

№	Mamlakatlar	Valyuta	Pensiya	Ish haqi
1	Rossiya	rubl	17 682,0	61 794,0
		AQSh dollari	286,9	1 002,7
2	Belorussiya	rel.rub	670,0	1 601,0
		AQSh dollari	270,5	646,5
3	Moldaviya	ley	3 146,7	10 376,2
		AQSh dollari	162,9	537,4
4	Ozarbayjon	manat	371,0	827,4
		AQSh dollari	218,2	486,7
5	Armaniston	dram	46 200,0	225 436,0
		AQSh dollari	116,8	570,1
6	Gruzija	lari	300,0	1 541,3
		AQSh dollari	108,09	555,3
7	Latviya	evro	526,6	1 362,0
		AQSh dollari	531,1	1 373,8
8	Litva	evro	483,8	1 805,9
		AQSh dollari	488,0	1 821,5
9	Estoniya	evro	581,8	1 563,0
		AQSh dollari	586,8	1 576,5
10	Qozog'iston	tenge	108 993,0	311 994,0
		AQSh dollari	232,7	666,1
11	Qirg'iziston	som	8 138,0	25 027,0
		AQSh dollari	97,4	299,7
12	Tojikiston	somoni	320,09	1 907,0
		AQSh dollari	31,3	186,6
13	O'zbekiston	so'm	1 070 493,0	3 721 800,0
		AQSh dollari	95,7	332,8

Xalqaro tajribada ma'lum bir mamlakatda pensiya yoshi mamlakat iqtisodiyoti darajasi (moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, ahol jon boshiga YalM hajmi), fuqarolarning turmush tarzi, mehnat stajlarini hisobga olish (mehnat jarayonlari), o'rtacha umr ko'rish davomiyligiga (demografik o'zgarishlar) qarab hisoblanadi.

“Bugungi kunda dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 65 yoshni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 57,5 yoshni (erkaklar uchun – 60 yosh, ayollar uchun – 55 yosh) tashkil qiladi”. (Tursunov, 2022).

2-jadval: Dunyo mamlakatlarida pensiya yoshi, 2022-yil

№	Mamlakat	Pensiya yoshi, 2022-yilda		Rejalashtirilayotgan pensiya islohotlari
		erkaklar	ayollar	
1	Avstriya	65	60	01.01.2024 yildan boshlab 2033 yilga qadar ayollarning pensiya yoshini 65 yoshga qadar oshiriladi
2	Ozarbayjon	65	63	2017 yilga qadar pensiya yoshi 63 va 60 yoshni tashkil qilgan. 65 yoshgacha har yilda 6 oyga oshirib borish belgilangan
3	Armaniston	63		-
4	Belorussiya	63	58	2017 yildan boshlab har yili 6 oydan pensiya yoshi oshirib borilgan
5	Belgiya	65		-
6	Bolgariya	63	60	-



7	Buyuk Britaniya	65	65	68 yoshgacha oshirish rejalashtirilgan
8	Vengriya	62		-
9	Germaniya	65,5		2012 yilgacha 65 yosh bo'lgan. Fuqarolarning to'g'ilgan yiliga qarab har yilda 1-2 oyga, 67 yoshgacha oshirib borish belgilangan
10	Gruziya	65	60	-
11	Isroil	67	62	Ayollar uchun pensiya yoshini 64 yoshga yetkazish rejalashtirilgan
12	Islandiya	67		-
13	Ispaniya	65		-
14	Italiya	67		-
15	Kanada	65		-
16	Norvegiya	67		-
17	AQSh	67		-
18	Fransiya	62,5		2023 yildan boshlab pensiya yoshini 67 yoshgacha oshirish rejalashtirilgan
19	Shvetsariya	65	64	-
20	Yaponiya	65		-

Xorijiy davlatlarda pensiya yoshi 60 yoshdan yuqori hisoblanib, ba'zi bir davlatlarda (Avstriya 65/60 yosh; Isroil 67/62; Polsha 65/60 yosh) erkaklar 65-70 yoshda, ayollar esa 60-65 yoshda pensiyaga chiqishadi. Aksariyat davlatlarda (Fransiya 67 yosh, Norvegiya 67 yosh, Armaniston 63 yosh, Belgiya 65 yosh, Yaponiya 65 yosh) esa erkaklar va ayollar uchun pensiya yoshi bir xil etib belgilangan.

Pensiya yoshi bo'yicha Yaponiya dunyoda eng yuqori o'rinda turadi. Yaponiya qonunchiligiga ko'ra pensiya yoshi 65 yosh belgilangan bo'lsada, o'rtacha umr ko'rish yoshi 82 yoshni tashkil qilayotganligi hisobiga aholining aksariyat qismi 70 yoshgacha mehnat qilib, keyin pensiya olishni ma'qul ko'rishadi. Bunga sabab esa pensiya miqdorining 42 foizgacha oshirilishidir. Mazkur holat kech pensiyaga chiqishni rag'batlantirishning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Shuningdek, har bir davlatda muddatidan oldin pensiyaga chiqish imkoniyati mavjud bo'lib, ma'lum bir shartlarni bajarish kerak bo'ladi. Masalan, zararli ishlab chiqarishlarda mehnat qilgan, huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qilgan, bola parvarishi bilan mashg'ul bo'lgan va boshqa shu kabi mehnat faoliyatini amalga oshirgan shaxslar erta pensiya chiqish huquqidan foydalanishi mumkin.

Ayrim davlatlarda pensiya tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, buni yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rishimiz mumkin.

Dunyoda barqaror iqtisodiyotga ega bo'lgan AQShda pensianing asosan ikki turi mavjud: davlat (barcha uchun) va kompaniyalar tomonidan ko'p yillik mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun beriladigan pensiya hisoblanadi. Pensiyani istalga vaqtda olishi mumkin. Pensiya olish huquqi 59 yosh 6 oyga yetganida paydo bo'ladi, lekin to'liq pensiya olish uchun 67 yoshga yetishi talab etiladi.

"Xitoy davlatining pensiya tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, bu davlatda o'zoq vaqt faqat shahar aholisiga pensiya to'langan. Qishloq aholisi esa pensiya berilmagan, qonunga ko'ra ular keksayganda farzandlari tomonidan ta'minlanishi kerakligi belgilab quyilgan. Xitoyda 2025-yilga qadar pensiya yoshini oshirish borasida dastur ishlab chiqilgan. Shu kunga qadar mamlakatda 1978-yilda qabul qilingan qonunga ko'ra erkaklar – 60 yosh, ayollar uchun esa – 55 yosh pensiya yoshi etib belgilangan. Bosqichma-bosqich joriy etiladigan pensiya sug'urtasi aholining 95 foizini qamrab olishi rejalashtirilmoqda.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniyada pensiya yoshi fuqarolarning tug'ilgan yiliga qarab o'zgaradi. Masalan, 1964-yilgacha tug'ilganlar uchun 65 yosh bo'lsa, qolganlar uchun 67 yosh etib belgilangan.

Fransiya fuqarolari uchun pensiya yoshi 62,5 yoshni tashkil qiladi. Fransiya Prezidenti tomonidan pensiya yoshini bosqichma-bosqich 67 yoshgacha oshirish borasida qaror qabul qilgan. Pensiya miqdori to'liq bo'lishi mehnat stajiga bog'liq bo'lib, pensiya yoshiga yetgunga qadar 42 yillik staj talab etiladi. Agar staj to'liq bo'lmasa yetmagan har bir yil uchun pensiya miqdori kamaytirilishiga sabab bo'ladi.

Buyuk Britaniyada ham pensiya tizimi mukammal shakllangan. Pensiya yoshi 65 yoshni tashkil etsada, bu yoshni oshirish rejalashtirilgan. Birlashgan qirollikda pensianing uch turi: davlat, mehnat va xususiy turlari mavjud. Mamlakatda 2016-yil 6-apreldan keyin pensiya yoshiga yetgan fuqarolar davlat pensiyasini olishi uchun kamida 35 yillik mehnat stajiga ega bo'lishi kerak. Agarda fuqarolar 2016-yil 6 aprelga qadar pensiya yoshiga yetgan bo'lsa, u holda ular uchun bazaviy (pensiya) to'lov haftasiga 137,6 funtni tashkil qiladi.



Daniya va Norvegiyada pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun bir xil – 67 yosh, Shvetsiya, Ispaniya va Belgiyada – 65 yoshni tashkil qiladi”. (Vestnik, 2022)

“Pensiylarning miqdorlarini oshirish pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning bir omili bo'lib, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. YuNISEF hisobotida O'zbekistondagi kam ta'minlangan oilalarning yarmidan ko'pi (52%) milliy ijtimoiy himoya tizimi tomonidan hech qanday ko'mak bilan qamrab olinmagan va vaqt o'tishi bilan turli nafaqalarning qamrovi qisqargani qayd etilgan bo'lib, bolali oilalar ham bugungi kunda aholining eng kambag'al qatlamlariga mansub bo'lib qolgan.” (Davronov, 2022)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pensiya ta'minoti tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida eng avvalo fuqarolarni kambag'allikdan himoya qilish, keksalikda, pensiya yoshiga yetganda munosib turmush faoliyatini ta'minlash uchun kamida avvalgi olgan ish haqining 40 foizidan kam bo'lmagan (hozirgi kunda qoplash koeffitsienti 28-30 foizni tashkil qilmoqda) miqdorda pensiya tayinlash va to'lash, o'rtacha umr ko'rish yoshining oshishini hisobga olib pensiya yoshini oshirish va boshqa masalalar yotadi.

Kelajakda yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat (sug'urta) staji, pensiya yoshini oshirish va pensiya tizimini takomillashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- pensiya tayinlab murojaat etuvchilar sonining ko'pligi, shuningdek ularning tarkibida to'liqsiz ya'ni yetarli bo'lmagan mehnat (sug'urta) staji bilan pensiyaga chiquvchilarning ulushi yuqori ekanligi, MDH, Gruziya va Boltiqbo'yi mamlakatlari tajribalaridan kelib chiqib, HMTning tavsiyasiga ko'ra yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat (sug'urta) staji 15 yil etib belgilanganligini hisobga olib O'zbekistonda mazkur stajni 10 yilga oshirish va kelajakda 15 yilga yetkazish maqsadga muvofiq;
- doimiy aholi sonining 2021-yilda 1992-yilga nisbatan 63,2 foizga o'sganligi, pensiya yoshining 1956-yildan beri o'zgarishsiz kelayotganligi, o'rtacha umr ko'rish yoshining oshishi, MDH, Gruziya va Boltiq bo'yi mamlakatlarida pensiya yoshini oshirish bo'yicha islohotlarining natijalarini qo'llagan holda O'zbekistonda ham pensiya yoshini erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun 58 yoshga har yili 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish kerak;
- xalqaro tajribada pensiya mablag'lari ma'lum bir badallar hisobiga shakllanadi. O'zbekistonda ham 2018-yilda bekor qilingan ishlovchilar tomonidan pensiya uchun to'langan sug'urta badallarini yana kam foizlar (2-3 foiz) hisobiga to'lash mexanizmini qayta joriy etish maqsadga muvofiq. Bu esa kelajakda Pensiya jamg'armasi mablag'larining taqchilligi bilan bog'liq muammolarni hal etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-son Farmoni.
2. Роик В. Д. Пенсионное страхование и обеспечение: учебное пособие для вузов / 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2020. – 478 с.
3. Tetlow G. Essays on the economics of retirement and pensions. A dissertation submitted in partial fulfilment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy of University College London. – England: Department of Economics University College London. 2015. – 224 p.
4. Орлов С. Н., Шеметов А. П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации. Монография. – Курган: “Изд-во Курганского гос. ун-та”, 2013. – 106 с.
5. Rajabov Sh. U. “Pensiya tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari” mavzusida Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2021-yil. 71 bet.
6. Ziyadullaev M. D. “O'zbekistonda yoshga doir pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish” mavzusida yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2019 yil. 32 bet.
7. www.apsf.ru – Xalqaro pensiya va ijtimoiy jamg'armalar assotsiatsiyasi (Международная ассоциация Пенсионных и социальных фондов) ma'lumotlari.
8. Tursunov J. Pensiya hisoblashda mehnat stajining ta'siri va pensiya yoshini belgilashda xorij tajribasi //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – S. 247-253.
9. pensiya.molodaja-semja.ru/faqs/pensionnyj-vozrast-v-stranah-mira/?ysclid=ld32tk37sw889267870 Пенсионный возраст в разных странах мира (таблица) (molodaja-semja.ru)
10. Международная ассоциация Пенсионных и социальных фондов 30 лет. Вестник № 40(41) 2022
11. Davronov Sh. Z. “O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urta tizimini tashkil etishning metodologik asoslarini takomillashtirish” mavzusida Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022. – 72 bet.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

